

Elim

Yaqinlar yiroqqa iitiladilar,
Kechalar chiroqqa intiladilar,
Tomchilar irmoqqa intiladilar,
To‘lqinlar qirg‘oqqa intiladilar,
Men senga intilib yashayman, elim!

Shu yurtu shu elga jon bo‘lsin nisor,
U — bizga abadiy quvonch, iftixor,
Sevgimni o‘zingga eturman izhor,
Timsoldir shu yurtga oy yuzli nigor,
Go‘zalim, g‘azalim, tanho sevgilim!

Bu Vatan, bu sevgi — Ollohdan tortiq,
Ne bordir dunyoda bu baxtdan ortiq,
U — mening jahonim, muqaddas borliq,
Oliy his, tafakkur, umrimga Yorliq,
Barin aks ettirar boy ona tilim!

Navro‘z kelibon

Navro‘z kelibon, jumlajahon nozlanajakdir.
Oftob qizitib, asta-sekin yozlanajakdir.

Yashnar tabiat, dashtu adir lola ichinda,
Yurtim — chamanim o‘zgacha pardozlanajakdir.

Irmoq kuladir, elga o‘pich bersa binafsha,
Maysa quyosh taftida tannozlanajakdir.

Bir lahza eshit qumriyu bulbulni navosin,
Sho‘x-sho‘xtaralib, yalayu shahnozlanajakdir.

Qaynar sumalak, varrak uchar, to‘yu tomosha,
Dillar quvonib, soz ila parvozlanajakdir.

Javlon urishar davra tuzib necha yigitlar,
Qizlar bezanib, husn ila mumtozlanajakdir.

Dunyoda odam qadri baland, sevsa Vatanni,
Yurt ichra yana hurmatu e‘zozlanajakdir.

Jumaniyoz Jabborov
O‘zbekiston xalq shoiri.
O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasidan.